

UDK 314.316.3/4.316.8

OILA VA UNING DEMOGRAFIK TARAQQIYOTI

L.X.Xudoyorov – o'qituvchi

M.H.Jabborova – talaba

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Tayanch soʻzlar: jamiyat, farzand, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, demografik mezon, ijtimoiy mezon, iqtisodiy mezon.

Ключевые слова: общество, ребенок, социально-экономическое развитие, еда, одежда, жилье, демографический критерий, социальный критерий, экономический критерий.

Key words: society, child, socio-economic development, food, clothing, housing, demographic criterion, social criterion, economic criterion.

Kirish. Jamiyat tashkil topishida, uning davomiyligini ta'minlashda oila ijtimoiy demografik manba hisoblanadi. Insonning dunyoga kelishi, yangi avlodning paydo bo'lishi, avlodlar almashinuvi asosan, oilada sodir bo'ladi. Farzand tug'ilib, kamolga yetib, shaxs sifatida shakllanishiga qadar lozim bo'lgan barcha ta'lim-tarbiya oila muhitida beriladi. Insonning ota-ona, qarindosh-urug'iga, qadriyatlariga, atrof-muhitga va tabiatga bo'lgan munosabatlari dastlab oilada boshlanadi. Shu bilan birga oila urf-odatlarini avlodlardan-avlodga yetkazuvchi ijtimoiy guruh hisoblanadi.

Har bir jamiyat a'zosi mana shu jamiyatning kelajakdagi vorisi bo'lib, kelayotgan yosh avlodni shu jamiyatga xos bo'lgan urf-odat, an'ana, qadriyatlariga munosib bo'ladigan yosh avlodni shakllantiradilar [1]. Bu jarayonda nafaqat ota-ona, qarindosh-urug'lar, balkim, shu jamiyatning boshqa a'zolari ham faol ishtirok etadilar. Biz buni ta'lim, sport, sog'liqni saqlash, din va boshqa yo'nalishlarda ham ko'rib boramiz.

Oilalar jamiyat bag'rida tashkil topib, taraqqiy etib borar ekan, o'zi ana shu jamiyatning kichik bir bo'lagi sifatida namoyon bo'ladi [2]. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, oila taraqqiyotiga ham ta'sir etadi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot rivojlangan davlatlarda oila va unda yuz beradigan demografik jarayonlarga qarashlar bir tomonlama bo'lib, borayotganligi tashvishlanarli holat bo'lib, qolmoqda [3]. Aksincha ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy etib rivojlanayotgan davlatlarda istiqomat qilayotgan aholining demografik faollashuvi oshib bormoqda.

Oilalar – bugungi shaklda oila a'zolarining bir-birlari bilan umumiy turmushi, iqtisodiy, mulkiy, ma'naviy, psixologik munosabatlari, o'zaro javobgarlik his-tuyg'ulari vositasida bog'lanib turishi bilan izohlanadi [4]. Oilada har bir oila a'zolarining o'z ijtimoiy o'rni bor. Oila mezonlari uch guruhga bo'linadi.

1. Demografik mezon–asosan oilaning demografik holati orqali ifodalanadi. Bu mezonning turli ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular orasida oila a'zolari tarkibiga, er va xotinning oiladagi mavjudlik holatiga, farzandlar soniga ko'ra guruhlashtirish keng tarqalgan.

2. Ijtimoiy mezon–oilalar a'zolarining ijtimoiy holati e'tiborga olingan holda guruhlashtiriladi. Ularning ijtimoiy kelib chiqishi, kasb-kori, oilada tutgan o'rni kabi jihatlari mezonning asosiy ko'rinishlari hisoblanadi.

3. Iqtisodiy mezon–oilaning iqtisodiy ta'minlanish darajasi e'tiborga olinib, ular kam, o'rta va to'liq ta'minlangan oilalar hisoblanadi [5].

Adabiyotlar tahlili. Oilaning ijtimoiy-demografik xususiyatlarini ilmiy tadqiq qilish ishlari asosan XX asrdan boshlanadi. Oila a'zolari o'rtasida sodir bo'ladigan murakkab va serqirrali o'zaro munosabatlar ko'plab olimlar, shu jumladan, O'zbekistonlik olimlar Jalilov X., Shoumarov B., Bekjonova M., Qoraxonov M., Mullajonov I., Shodiyev R., Bo'riyeva M. va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Ayrim manbalarda oilaning demografik funksiyasi, "naslning davom ettirish" deb, sotsiolog olimlar U.M.Sverdlov, V.A.Ryasensov, V.P.Klyuchnikov esa "inson zotini davom ettirish", A.G.Xarchev va S.D.Laptenok "aholi sonini qayta tiklash", N.G.Yurkevich "bolalarni dunyoga keltirish" kabi nomlar bilan ataganlar.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqot mavzusini o'rganish jarayonida statistik, kuzatuv,

matematik, tarixiy, geografik taqqoslash va ekstrapolyatsiya usullari qo'llanilgan, shuningdek, ijtimoiy so'rovnomadan foydalanilgan.

Oilalarning demografik rivojlanish istiqbollarida sotsiologik demografik tadqiqotlar. Mazkur olib borilgan ilmiy tadqiqot ishini yozish jarayonida bir nechta sotsiologik tadqiqotlar o'tkazdik. Sotsiologik tadqiqot Qashqadaryo viloyatida "Oilada nechta farzand bo'lgani ma'qul?" nomli mavzusida o'tkazildi. Bizning sotsiologik tadqiqotimizning maqsadi Qashqadaryo viloyatidagi reproduktiv yoshdagi ya'ni oila qurgan va ularning oila qurishdan oldingi rejalashtirgan farzandlari soni (o'g'il va qiz bolalar) turmush qurgandan so'ng farzandlar soni hamda reproduktiv yoshning so'ngiga qadar yana qancha farzand ko'rishni rejalashtirayotganliklariga oid bo'lgan natijalarni o'rganishdan tashqari viloyat aholisi o'rtasida reproduktiv salomatlik va tibbiy geografiya sohasidagi statistik ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, umumlashtirish va prognozlashtirishga qaratilgan. Sotsiologik tadqiqotning amaliy asosi sifatida, shaxsning reproduktiv huquqlarining roli va ahamiyatini yana bir bor ko'rsatib o'tishlikni lozim topdik.

Sotsiologik demografik tadqiqot usulining normalari va qoidalarini hisobga olgan holda Qashqadaryo viloyati "Oila" ilmiy-amaliy markazi bilan hamkorlikda tadqiqotlar o'tkazildi. Tadqiqot ishining vazifalaridan hisoblangan farzandlarning dunyoga kelishiga sabab bo'luvchi ba'zi holatlarning ta'siri ham hisobga olinib quyidagi natijalar olindi. Ya'ni oiladagi farzandlar soni, ularning dunyoga kelishida ota yoki onaning qaysi biri hal qiluvchi qarorni qabul qilishda ahamiyatli ekanligi yoki har ikkisinin ham ahamiyati birdek ekanligi, farzandlar dunyoga kelishida ota va ona uchun davlat tomonidan moddiy qo'llab-quvvatlashning ahamiyati qay darajada bo'lishi lozimligi e'tiborga olindi.

Oilani rejalashtirishda kim ko'proq tashabbuskor (er yoki xotin) ekanligi, o'tkazilayotgan tadqiqotda ishtirok etayotgan respondent (qatnashuvchi, ishtirokchi)larning farzandlari soni (o'g'il va qiz bola) va ular orasidagi yosh tafovutlarini ham o'rganish, kontrasepsiya vositalarining oilani rejalashtirishdagi ahamiyati va roli hamda kontrasepsiya vositalari turlaridan foydalanishning bugungi kundagi holati haqida hamda ulardan kim ko'proq foydalanayotganligini (er yoki xotin) bilish kabi savollar ham o'z o'rnida qo'yildi.

Er va xotinning necha yoshda oila qurishganini o'rganish orqali reproduktiv yoshdan o'tganlar va reproduktiv yoshga endi kelganlar o'rtasida nikohga kirish yoshi o'rtasidagi farqni o'rganish, birinchi farzand respondent (qatnashuvchi, ishtirokchi)larning necha yoshida tug'ilganligini aniqlash orqali nikohning birinchi, ikkinchi, uchinchi yillarida kontrasepsiya vositalaridan foydalanishni yoki yo'qmi, foydalanish bo'lsa qaysi turidan degan savolga javob berish hamda nikohdan so'nggi oradagi yillar oralig'ida farzand ko'rmaganlarining ayrimlarida bepustlik bo'lgan yoki bo'lmaganligi (er yoki xotin) aniqlash kabi savollar muhim o'rin tutdi.

Qarindoshlar o'rtasidagi nikohga bo'lgan respondent (qatnashuvchi, ishtirokchi)larning fikrini o'rganish orqali ularning turmush o'rtog'i unga nisbatan qarindosh yoki qarindosh emasligi hamda qarindosh bo'lsa, qarindoshlar

o'rtasida tug'iladigan farzandlarda jismoniy va psixologik jihatdan rivojlanishida nuqsoni bo'lishi mumkinligidan xabardorlik darajasini ham o'rganish va qancha respondent (qatnashuvchi, ishtirokchi) aynan qarindoshi bilan o'zaro nikohda ekanligini aniqlash lozim bo'ldi. Respondent(qatnashuvchi, ishtirokchi)larning nikohga kirishida asosiy qarorni kim qabul qilganligini (o'zi sevgani uchun mustaqil qaror qabul qilganmi, ota onasining xohish irodasi bilanmi yoki qarindoshlarining xohishiga ko'ra amalga oshirilganmi) o'rganish, farzandlar tug'ilishida davlat tomonidan moddiy qo'llab-quvvatlashning ta'siri qanday bo'lishini o'rganish, kelajakda yana nechta farzand (o'g'il va qiz bola) ko'rishni rejalashtirayotganliklarini o'rganish va farzandlar tug'ilishi orasidagi farqni aniqlash, reproduktiv xatti-harakatni baholash, abort qilish omillarini tahlil qilish va abortlar natijasida yuzaga keladigan qonuniyatlarni aniqlashdan iborat.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ushbu tadqiqotda respondent(qatnashuvchi, ishtirokchi) sifatida 140 ga yaqin kishilar ishtirok etdilar. Ushbu tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning barchasi Qashqadaryo viloyatining shahar, shaharcha va qishloqlarining aholisidirlar. Birinchi savol respondent(qatnashuvchi, ishtirokchi) larning yosh tarkibini aniqlashga qaratilgan edi.

1-jadval

Yosh toifalari	Foizda	Yosh toifalari	Foizda	Yosh toifalari	Foizda
18 yosh-gacha	1	19-24	4,3	25-29	10
30-34	13,7	35-39	20	40-44	14,3
45-49	11,5	50-54	11,4	50 yoshdan oshganlar	13

Jadval: Muallif tomonidan o'tkazilgan sotsial-demografik tadqiqotlarning natijasiga asosan tuzilgan.

Adabiyotlar

1. Бўриева М.Р. Рождаемость в Узбекистане. –Т.: «Фан», 1991.
2. Бўриева М.Р. Демография асослари. –Т.: «Университет», 2000, 157-б.
3. Бўриева М.Оила демографияси. –Т.: «Ўзбекистон», 1997, 44-б.
4. Бекмуродов М. Ўзбекистонда жамоатчилик фикри. –Т.: «Фан», 1999.
5. Бўриева М.Р. Ўзбекистонда оила демографияси. –Т.: «Университет», 1997.

REZYUME. Ushbu maqolada oila tushunchasi va uning o'rganish obyekti bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlardan kimlar taqdidot o'tkazilganligi, shuningdek, oila asosi BMTning ta'rifiga «Bir oila – butun insoniyat oilalarining birligidir», u jamiyatning kichik bo'g'ini, vatan ichra vatandir», - deya tavsif bergan. Qashqadaryo viloyati) «Oila» ilmiy-amaliy markazi bilan birgalikda «Oilada nechta farzand bo'lgani ma'qul» mavzusida ijtimoiy so'rovnoma natijalarining tahlili ham bayon qilingan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье были представлены понятие семьи и её объект исследования отечественными и зарубежными учеными, а также основные типы семьи, согласно определению ООН, «Семья – это единство всех человеческих семей» это маленькое звено общества, описывающее, что Родина — это Родина внутри. Также был представлен анализ результатов социального опроса на тему «Сколько детей лучше в семье» совместно с научно-практическим центром Кашкадарьинской области «Семья».

SUMMARY. In this article, the concept of family and its object of study were presented by local and foreign scientists, as well as the basis of the family, according to the definition of the UN, "A family is the unity of all human families", it is a small link of society, described that the homeland is the homeland within. The analysis of the results of the social survey on the topic "How many children is better in a family" together with the scientific and practical center of Kashkadarya region "Family" was also presented.

SUG'ORILADIGAN VOHA LANDSHAFTLARING DINAMIKASINI TADQIQ ETISH MASALALARI

M.G.Nazarov – *geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*
J.Sh.Poyanov – *tayanch doktorant*

Qarshi davlat universiteti

Tayanch so'zlar: dinamika, landshaft dinamikasi, antropogen dinamika, geotizim, invariant.

Ключевые слова: динамика, динамика ландшафта, антропогенная динамика, геосистема, инвариант.

Key words: dynamics, landscape dynamics, anthropogenic dynamics, geosystem, invariant.

Kirish. Barcha landshaftlar turli xil dinamik fizik-kimyoviy xossalarning asosiy omillari deb hisoblash mumkin, shu nuqtai nazardan olib qaraganda ular barqarorlik holatda bo'lishi bilan bir qatorda landshaftlarning dinamik muvozanati ham boshqa energiya oqimlarining

Respondent (qatnashuvchi, ishtirokchi)larning millati bo'yicha milliy tarkibini hisobga olishga qaratilgan savol bandiga muvofiq so'rovnoma ishtirok etganlarning millati bo'yicha ham natijalar olindi.

2-jadval

Millati	Foizda	Millati	Foizda	Millati	Foizda
O'zbek	75	Tojik	14	Qozoq	3
Turkman	6	Rus	1	Arab	1
Boshqa millatlar	1	-	-	-	-

Jadval: Muallif tomonidan o'tkazilgan sotsial-demografik tadqiqotlarning natijasiga asosan tuzilgan.

Anketalarni tahlil qilish jarayonida so'rovnoma qatnashgan respondent(qatnashuvchi, ishtirokchi)larning 40 foizi oliy ma'lumotli, 42 foizi o'rta maxsus ma'lumotli va 15 foizi o'rta ma'lumotli ekanligi ma'lum bo'ldi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, oliy ma'lumotli respondent (qatnashuvchi, ishtirokchi)lar orasida asosan pedagogika sohasi mutaxassislari ko'pchilikni tashkil qildi.

Xulosa, takliflar, tavsiyalar. Qashqadaryo viloyati oilalarining ijtimoiy demografik rivojlanishida tug'ilishni tartibga solish chora-tadbirlari quyidagilarni nazarda tutishi kerak:

- ✓ aholi sifatini oshirish, ayollarning umumiy va kasb-hunar ta'limi olishdagi faolligini oshirish;
- ✓ aholini ishga joylashtirish chora-tadbirlari hamda urbanizatsiyani rivojlantirish;
- ✓ respublika fuqarolarining turmush darajasi va sifatini oshirish;
- ✓ oila, mehnat jamoasi, shaxsning xatti-harakatiga davlatning ta'sirini kuchaytirish;
- ✓ oila va nikohni mustahkamlash va h.k.

Demografik siyosat konsepsiyasini amalga oshirish dasturi uchun davlat byudjeti, shuningdek, BMTning Aholishunoslik jamg'armasi va ayollar masalalarini rivojlantirish jamg'armasi hamda boshqa xalqaro moliya institutlarining mablag'lari ajratilishi maqsadga muvofiq.

kirib borishi bilan doimiy ravishda o'zgarib boradi. Shu sababli landshaftlarda tashqi va ichki muhit o'rtasidagi modda va energiyaning doimiy aloqalar mavjuddir.

Asosiy qism. Landshtafning komponentlar va uning morfologik qismlari muttasil aloqada bo'ladigan modda va